

ABDULLA QODIRIYNINING ULOQDA HIKOYASI TAHLILI

Unarova Dilafruz Abdimajit qizi

SamDChTI akademik litseyi

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

dilafruzunarova1@g.mail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola badiiy asar tahlilining adabiyot darslaridagi ahamiyati asosli yoritilgan bo'lib, ijodkorning so'z qo'llash mahorati, fikrni qisqa hajmda tushunarli yetkaza olish qobiliyati tahlillar misolida asoslangan. Realistik hikoyalar da personajlarning reallikka qay darajada moskelishi Abdulla Qodiriyning sermahsul va rang barang ijodi, qarashlari va realistik hikoyaning dastlabki namunasi sifatida baholangan "Uloqda" hikoyasi xususida.

Kalitso'zlar: hikoya, epikjanr, personaj, realistik hikoya.

Hikoya badiiy adabiyotimizda kichik epik janr bo'lib hayot hodisalarini ixcham holda ifoda etadigan nasriy asar turi hisoblanadi. Bu janr qadimdan rivojlanib kelgan jumladan buning ilk yozma namunalarini Kultegin va To'nyuquq bitiktoshlarida uchratamiz, Rabg'uziyning "Qissasi Rabg'uziy" asarida ham ahloqiy hikoyalarni ko'ramiz. O'zbek adabiyotida XX asrga kelib realistik hikoya janri shakllana boshladi shu jumladan jadid adabiyotida hikoya janri rivojiga nazar tashlasak Cho'lponning "Qurboni jaholat", Abdulla Qodiriyning "Uloqda" hikoyalari realistik hikoya janrining yorqin namunalaridir. Xo'sh nega aynan realistik usulda yozilgan bu hikoyalar? Bunga sabab o'sha davr muhiti, sho'rolar tazyiqi chunki ochiqdan-ochiq qilingan tanqid har qanday yozuvchining jonini hatarga qo'ygan va arzimagan sabablar bilan adabiyotimizning buyuk chinorlarini chopmasdan qulatilgan uchun ham turli taxalluslarni qo'llash jadid adabiyotida rivojlandi. Abdulla Qodiriy asarlari maktab, oliy o'quv yurti darsliklari mazmun-mundarijasiga alohida ko'rk, salobat bag'ishlab turadi. Chunki bu ulug' adibning ijodi, mana, bir asrdiki, ijtimoiy-madaniy turmushimizning o'ziga xos ko'zgusi bo'lib keladi. "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon" romanlari siz nafaqat adabiyotimiz, balki butun madaniy hayotimiz rangsiz,

tussiz, juda g‘arib bo‘lib qoladi. Ushbu romanlar o‘zbek xalqi tarixi, Markaziy Osiyo mintaqasi tabiati, ijtimoiy hayoti, urf-odat va an‘analari, oila munosabatlari, odamlarning dunyo qarashi, fe‘l-atvori va yana ko‘p narsalar to‘g‘risida yorqin tasavvur beradi. Ishonch bilan aytish mumkinki, adabiyotning milliyligi va umuminsoniy qadriyatlarga asoslanishi, Abdulla Qodiriy singari ijodkorlar asarlarida aniq aks etadi. Adib barcha asarlari mavzusini turmushning naq o‘zidan oladi va undagi hodisalarni adabiyot tarozisiga tortib, taqdim qiladi. “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon”, “Obid ketmon”, “Juvonboz”, “Baxtsiz kuyov”, “Kalvak maxzumning xotira daftaridan”, “Toshpo‘latta jang nima deydi?” ni o‘qiganlar ijtimoiy turmushdagi yaxshi va yomon jihatlarni aniq ajratib oladi. Yozuvchining “Uloqda” hikoyasi ham shunday salmoqqa ega. Abdulla Qodiriy ushbu asarining keyingi nashriga: “Bu hikoya 1915-yilda yozilg‘on edi. Bolalik davrimning yodgori bo‘lg‘ani uchun ortiqcha o‘zgarishlar kiritmadim” deb izoh yozgan. “Uloqda” hikoyasi “sahna”sida Turg‘un asosiy qahramon sifatida harakat qiladi. Turg‘unning yonida onasi, xonadon xizmatchisi, akasi Mahkam, chavandozlar (Sobir tegirmonchining o‘g‘li, mo‘ylov ish opdek yigit, oldiga bir ola echkini o‘ngargan, ko‘k ragi ochiq, yaktakchan, saman otliq yigit, To‘g‘on aka, bodring sotuvchilar, Salim chavandoz, Murod chavandoz Turg‘unning o‘rtoqlari: Nurxon, Haydarsoqov, Shokir mishiqli, Orif sarkor, Eson boy ko‘rinadi. Shuningdek, Turg‘unning otasi, tog‘asi, samovarchi, Ro‘ziqassob, Eson ko‘knorining o‘g‘li tilga olinadi. Hikoyadagi voqealarda Turg‘un bilan yonma-yon tomoshabinlar ham ishtirok etadi. Ularning ishtiroki: “Tomoshachilar orasida yana olag‘ovur qo‘pti: “Ana, uloqning solig‘ini yig‘ayotibdilar!”, “Uloq hozir boshlanadi!”, “Murod chavandoz hamturdi!”, “Salim qalpog‘inikiydi!”, “Ro‘zi qassob uloqni bo‘g‘izlamoqchi, pichog‘ini qayrayapti!”, “Boyvachchalar ham qo‘zg‘alishdilar!”, “Salim choponini yechmoqchiga o‘xshaydi!”, “Haybarakalla, shovvozlar!” Hamma tomoshachilar rsabrsizlanib: “Shu tobgacha tuya bo‘g‘izlasa ham bo‘laredi, ulog‘iy axlabqoldimi?”–deyishadilar... Buyoqdagi tomoshachilar: “Taqimgabos, taqimga!”, “Otning boshini qo‘y, choviga qamchinishig‘ab ber!”, “Bo‘sh kelma, mahkamtut!”, “Yuganini bo‘shat, qamchingni tishlab ol, yoningga alahsima!”, “Olding, olding!”

“Berma, chapgaburul, chapga!”, “Tut, qo‘yma!”, “Voyto‘ymagur, berib yubording-a, o‘z ko‘nglingda sen ham uloqchisan-da!”, “Oting haromqotsin, otmi, eshakmi–bu haromo‘lguring?” ...deb har xil tovushda baqiradilar. Uloq yerga tushib ketib qolsa, tomoshabinlardan ba‘zisi yugurib borib yerdan uloqni azod ko‘tarib oladi, ukasimi, oshnasimi–ishqilib birorta yaqin kishisiga tutqizmoqchi bo‘ladi. Lekin boshqa chavandozlar uloqni undanolmoqchi bo‘lib ustiga duvyig‘iladilar, ubermaslikka tirishadi, boshqalar o‘rtaga sanjob qilib siqadilar. Bechora anchadankeyin oqsoqlanib yoki qo‘linisilab o‘rtadanarang chiqib ketadi. Chekkan azobini so‘zlay so‘zlay bir chetga chiqib ketadi” tarzida beriladi. Hikoyada ular hozirgi paytdagidek “tomoshabin” emas, “tomoshachi” deyiladi. “Uloqda”dagi: “Otasi bolasini, akasi ukasini tanimaydi, chang-to‘zon, terlangan, pishilgan, har kim uloqni taqimiga bosish qayg‘usida. Boshyorilib, ko‘z

Chiqqan bilan, otdan yiqilib, qo‘lisingan bilan parvoyi falak... Ishqilib, uloqni taqimga bosilsa bo‘ldi... Taqimga bosish o‘zi juda ham nash‘alik-da. Ayni o‘rinlar Abdulla Qodiriyning roman, hikoya, ocherklari, publitsistik maqolalari Fitrat, Cho‘lpon asarlaridan o‘tkir piching, tagdor kesatiq, zaharolud istehzosining kuchliligi bilan farq qilishini ko‘rsatadi. “O‘tkan kunlar” muallifining “Uloqda” va boshqa asarlaridagi, ayniqsa, publitsistik maqolalaridagi piching, kesatig‘i dauel- yurt ayanchli ahvolda ekanidan iztirobga tushib, azoblanib yashagani bilinadi. “Uloqda” hikoyasidagi so‘zlar statistikasini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, unda umumiy 2195ta so‘z ishlatilgan. Shu so‘zlardan 79,1foizi turkiy so‘zlar bo‘lsa, 11,9 foizi arabcha so‘zlar, 9,8 foizi esafors-tojikcha so‘zlar tashkil etadi. Qolgan 0,2 foizini boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlar egallaydi. Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.A.Qodiriy. Diyoribakr: she‘rlar, hikoyalar, sahna asarlari, hangoma, felyeton va maqolalar. – Toshkent: “Yangi asravlodi”, 2007. – 472-b. – 418-bet
- 2.Sobirova Salomat Saxatjonovna, Adabiyot darslarida badiiy asar tahlili, Международный научный журнал No10(100), часть 2 «Научный импульс» Мая, 2023

3. Abdumajidov R.B., AbdullaQodiriy–o‘zbek realistik romanining yaratuvchisi, Samarali ta’lim va barqaror innovatsiyalar jurnali2(3),417-420
4. AbdumajidovR.B., YusupovS.R., AbdullaQodiriyhayotivaasarlariningbugungiyoshla rtarbiyasidagio‘rni, Samaralita’limvabarqarorinnovatsiyalarjurnali2(3),282-288